

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bo‘hronlar davrida yashagan, ichki ziddiyat va kechinmalarga boy Gamlet kabi, koreys muallifi hikoyasining yosh qahramoni ham og‘ir davr – o‘tish davri odami. “Qorong‘i tun” hikoyasida namoyon bo‘lgan gamletona ohang “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasi qahramoni obrazida yanada rivojlantiriladi va chuqurlashtiriladi. Har ikki hikoya qahramoni ismlari ingliz alibosining ayni bir harfi – X bilan belgilangan. “Qorong‘i tun” va “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyalarining qahramonlari o‘z ma’naviy qiyofasiga ko‘ra o‘xshash bo‘lsa-da, ikkinchi hikoya qahramonining obrazi ancha keng berilgan. Ammo bu yerda ham qahramonning ma’naviy iztiroblari va yolg‘izligi sababla-ri haqida aniq bir narsa deyilmagan.

Adabiyotshunos olim Kim Donin fikriga ko‘ra, “Qorong‘i tun” hikoyasi qahramoni obrazi puxta ishlanmagan, shu sababli hikoyada gamletona ohang kuchli yangramaydi. Yom Sansop “Qorong‘i tun” hikoyasi g‘oyasini oshib berishda, qahramonlar ruhiyatini ochishda yangi shakl va yangi uslubdan foydalanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Тошкент, 2015, 356-бет.
- (2). Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигига таҳдил ва талқин муаммоси (XX асрнинг 80–90-йиллари асосида). Филол.фналари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс..., Т., 2002, 44-бет.
- (3). Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳхор ижодида бадиий психологизм. Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф., Бухоро, 2020, 44-бет.
- (4). 염상섭. 두 파산. – 서울: 문학과지성사, 2006. – 325쪽.

**Shin Viktoriya Aleksandrovna (TDSHU Koreyashunoslik oliy maktabi  
erkin tadqiqotchisi; shinviktoriya94@gmail.com)  
LI SAN IJODIDA “YANGI AYOL” OBRAZI TALQINI**

*Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy muhit, adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq koreys adabiy jarayonlarida ayol obrazining psixologik jihatdan shakllanishi masalalari Li San ijodi misolda ko‘rib chiqilgan. Chunki ayol psixologiyasini o‘rganish muayyan, xususan, Li San yashagan davr bilan bog‘lab o‘rganish nasrning badiiy poetik ko‘lamini belgilashda muhimdir. Adib qalamiga mansub hikoyada ayol ruhiyatini aks ettirishda monolog, epilog, peyzaj, detal kabi badiiy tasviriy vositalardan o‘rinli foydalanish muallifning hikoyachilik mahoratidan darak beradi.*

*Kalit so‘zlar: o‘ttiz uch, to‘qqiz, olti, xonodon, aspirin, adalin, qanotlar, quyosh, darvoza.*

**Шин Виктория Александровна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь;  
shinviktoriya94@gmail.com)**

#### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА «НОВОЙ ЖЕНЩИНЫ» В ТВОРЧЕСТВЕ ЛИ САН

*Аннотация. В данной статье на примере творчества Ли Сан анализируются аспекты психологического формирования женского образа в корейской литературе, которые тесно взаимосвязаны с социальной средой, а также литературной и культурной жизнью. Исследование женской психологии играет важную роль для понимания художественно-поэтического содержания прозы. Умелое использование различных художественных приемов, таких как монолог, эпилог, описание природы и деталей, для передачи внутреннего мира женщины демонстрирует мастерство писателя в искусстве повествования.*

*Ключевые слова: тридцать три, девять, шесть, дом, аспирин, адалин, крылья, солнце, ворота.*

**Shin Viktoriya (Graduate School of Korean Studies, Freelance researcher; shinviktoriya94@gmail.com)**

#### INTERPRETATION OF THE IMAGE OF “NEW WOMAN” IN LEE SAN’S

*Annotation. Using the example of Lee San’s work, the article examines the issues of psychological formation of the image of a woman in Korean literary processes closely related to the social environment, literary, spiritual and cultural life. Because the study of female psychology is important in determining the artistic and poetic scope of prose. The appropriate use of artistic visual means in the narrative by the author’s pen, such as monologue, epilogue, landscape, details to reflect the female spirit, shows the author’s skill in narration.*

*Key words: thirty-three, nine, six, house, aspirin, adaline, wings, sun, gate.*

**Kirish (Introduction).** Dunyo san’atida ayol obrazi kirib bormagan sohaning o‘zi bo‘lmasa kerak. Ma’lumki, badiiy adabiyotda ayol obrazi yetakchi o‘rin egallaydi. Zero, Zuhriddin Isomiddinov o‘rinli ta’kidlaganlaridek: “Ayol bo‘lmasa, adabiyot bo‘imas edi. Adabiyot, avvalo, aylolga atab, ayol uchun, uning ko‘nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan hilqat ne o‘zi – shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor

aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san‘ati, avvalboshi, er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtingan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo‘ladi. Shu bois adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzui ayoldir” [3;372-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Darhaqiqat, ayol – adabiyotning markaziy masalasi sifatida o‘rganish obyektiga aylandi. Bu fikrni Arab tadqiqotchisi A.A.Xalafning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “Sharq san‘atida ayol obrazi Markaziy o‘rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko‘p ma’nolarga ega bo‘lib, turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u ayolni ma’naviy yuksak darajada bo‘lsa-da, “narsa” sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchchi tomondan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri, ayniqsa, she’riyat va tasviriy san’at sintezida keng qo‘llanilgan” [4;118-b.].

Arab tadqiqotchisining “...ikkinchchi xususiyatda ayol tasviri, ayniqsa, she’riyat...keng qo‘llanilgan”, degan fikrlari o‘rta asrlarda ona tilidagi she’riyat – sijo mualliflari Xvan Jini (1506–1544, adabiy taxallusi Myonvol), Li Keran (1573–1611, adabiy taxallusi Mechxan) va Chin Oklarga ham tegishli [1;27-b.]. Mumtoz davr koreys she’riyati tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, aslida, kisen bo‘lgan bu shoiralar qalamiga mansub sijolar olam baxtli bo‘lishi uchun qilingan “...qarg‘ish, duo”lardir. Ular nazdida hayot bu ikki – ayol va erkak uyg‘un harakati demakdir [1;30-b.].

XVII – XVIII asrlarda yaratilgan Kim Manjun qalamiga mansub “Yun Xonim haqida” roman muallifi onasining hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, yozuvchi ona obrazida “namunali ayol” portretini yaratadi. “Sa xonimning janub bo‘ylab sargardonliklari” romanida go‘zallik va donishmandlik timsolining jamiyat va oila uyg‘unligini saqlab qolishdagi xatti-harakati ishonarli va mohirona ochib berilgan. Asar uchun o‘rta asrlarda yozilgan “Inxyon haqida qissa” asos bo‘lgan. Mazkur qissa bosh qahramoni tarixiy shaxs, ya’ni, qirolicha Inxyon bo‘lib, o‘ng va so‘l qanot vakillari o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik, saroy fitnalari sabab, surgunga yuborilgan. Ayrim tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, “namunali ayol”ga bag‘ishlangan bu qissani “...qirolga yaqin freylinlardan biri yozgan...”, deb taxmin qilinadi [5;174-b.].

Kim Manjunning “To‘qqiz kishining bulutli tushi” romanini qahramonlari ham bir erkak va sakkiz paridan iborat bo‘lib, buddaviy rohiblik yo‘liga kirgan bosh personajning moddiy va ma’naviy hayot o‘rtasidagi sinovlardan o‘tishida ayollar muhim vazifani bajaradilar. Bu romanlar koreys adabiyotida muallifi noma’lum qissalar taraqqiyotini belgilab berdi.

Ma’lumki, XVI–XVIII asrga tegishli hodisa – she’riyatdagi Kyuban kasa “uyning ayollar burchagida kuylangan qo‘shiqlar” janrida ayolning og‘ir qismati, uchrashuv va hijron, vafodorlik, uning kelishini kutilish kabi masalalar yetakchilik qildi. XX asr boshida mamlakatda yuz bergan tarixiy hodisa, ijtimoiy muhit, ma’rifatparvarlik harakatlari sabab adabiyotda ayolga bo‘lgan an’anaviy muhabbat, ayrılıq va hijron mavzulari keyingi planga o‘tib qoldi. K.P.Karagoda “Yangi zamon sanatida ayollar obrazining ijtimoiy-madaniy sharti” nomli tadqiqot ishida yangi zamon adabiyoti va san‘atida ayollar o‘rnining o‘zgarganligini alohida ta’kidlaydi. Tadqiqotchi fikriga ko‘ra, “...Yangi davr san‘atida ayol tipologiyasini ikkiga, ya’ni “yangi” va an’anaviy ayol obrazlariga ajratish mumkin. “Yangi” – jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni aks ettiradi va shaxsning munosabati qanday o‘zgarayotganligini ko‘rsatadi. Ilgari vujudga kelgan va yangi zamon san‘atiga uyg‘un ravishda kirgan obrazlar an’anaviy hisoblanadi” [2;19–20-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mumtoz davr koreys adabiyotida ayol obrazlari: muallifi noma’lum qissa larda ayol kishi shaxs, ya’ni, o‘z ichki olamiga ega inson sifatida teran ochilgan emas. To‘g‘ri, “Chxunxyan haqida qissa”da kisen qizning yuqori tabaqa vakili o‘g‘liga bo‘lgan sadoqatli muhabbat, ‘Sim Chxon haqida qissa’da ota-onal oldida farzandlik burchi masalalari yoritilgan. Hatto “Paksi haqida qissa”da ham bosh personaj Paksi tashqi qiyofasi ko‘rimsiz, boy shaxsiy imkoniyatlarga ega bo‘lmagan shaxs sifatida tasvirlangan. Bu qissa nafaqat so‘z san‘atining umumiyy qonuniyatlarini, balki umumiyy shartlar va milliy tarixiy yo‘lning xususiyatlarini aks ettirgani bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Qissa noma’lum muallif tomonidan yozilgan. Asarning yaratilishiga Koreyaga manjurlar istilosi – Pyonjan urushi (1636–1637) boshlanishi bilan bog‘liq materiallar asos bo‘lgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur davrda yaratilgan qissa qahramoniga shon-shuhurat keltiradigan pirovard qilmish harbiy jasorat bilan bog‘-liq, xolos.

Shunday ekan, o‘rta asrlar koreys qissalaridagi Chxunxyan, Sim Chxon, Paksi, koreys romanlaridagi Sa xonim adabiy qahramon sifatida har qancha mashhurlikka erishmasin, shuhurat topmasin, ular kitobxon ko‘z o‘ngida jonli, o‘z ichki olamiga ega, faqat o‘ziga xos fe’l-atvorga ega inson sifatida gavdalanmaydi. Kitobxon esa ayni obrazni emas, u ifodalayotgan estetik ma’no va g‘oyani baholashi mumkin [6].

Zamonaviy koreys adabiyotida ayollar yangi tipining shakllanishi va o‘zgarishiga, ularning o‘zligini anglashiga muhit katta ta’sir ko‘rsatdi. Natijada 1920-yillardan boshlab yangi ayol obrazi kashf etildi va

ayol o‘zligini anglashi bo‘yicha ilk tadqiqot ishlari boshlandi. Bu davrga kelib “sof adabiyot” vakili kim donin qalamiga mansub “Bir savat batat” hikoyasida ayol shaxsi davr muhiti, ijtimoiy chigalliklar, yuzaga kelgan vaziyat sabab “tuban” likka mahkum qilindi [7;15-b.].

Hikoyaning markazida Ponnyo ismli qizning taqdiri yotadi, ilk boshdan muallif fojiaviy vaziyatlar – “o‘ziga to‘q” dehqonlardan chiqqan va xonavayron bo‘lgandan keyin shaharning qo‘rqinchli xarobalarida yashagan ota-onasining ayanchli ahvoliga asosiy etiborni qaratadi. O‘n besh yoshida Ponnyo bir “qari bo‘ydoq erkakka 18 von evaziga” sotilgan. Ammo u odam tanballardan biri edi. Oila qashshoqlik ichida yashaydi. Keyin ular Pexnyanga ko‘chib ketishga qaror qilishadi. U yerda Ponnyo tilanchilik qilishga majbur bo‘ladi, ipak qurti boquvchisining yoniga mardikorlikka o‘tadi, boshqaruvchining ko‘ngilxushlovchisi ham bo‘ladi. Bir kuni kartoshka o‘g‘irlayotganda uni Van ismli xitoylik ushlab oladi. Ponnyo unga ko‘ngilxushlovchi bo‘lishga majbur bo‘ladi.

Xitoylik Van boshqa bir qizga uylanadi, Ponnyo bundan g‘azablanib, uni o‘ldirish uchun qo‘lda o‘roq bilan boradi. Ponnyo Vanning qallig‘ini rosa do‘pposlaydi, Vanni esa o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Van uning qo‘lidan o‘roqni tortib oladi va qiznng qotiliga aylanadi. Badiiy detal sifatida olingan o‘roq jinoyatga oldindan tayyorgarlik ko‘rilganidan darak beradi. Asarning mazmuni Ponnyoning o‘limi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni fosh qiladi, jamiyatda ayollarning ayanchli ahvoli, pulning har narsadan ustunligiga qaratilgan. Asarda muallif “kulba” ahlining hayotini haqqoniy tasvirlaydi.

Shuningdek, adibning “Zaifa g‘ami” hikoyasida yolg‘iz o‘qituvchi ayolning boy xonadon farzandlariga saboq berishi hikoya qilinadi. Oqibatda, ayol uy egasining “ko‘ngilxushlovchi”siga aylanadi. Ammo u hayot yo‘lini boshqa erkak bilan bog‘lashni istaydi. Kim Donin ilk bor insonning hissiy va ma’naviy qarashlari to‘qnashuvini ko‘rsatadi.

Kim Donin bilan zamondosh Na Doxyanning “Tush” hikoyasida qoloq oila, uning eski urf-odatlari, shavqatsizlik, tengsizlik,adolatsizlik, ma’naviy razolat ochib beriladi. Hikoya hayotning salbiy tomonlarini boshdan kechirayotgan qahramon nomidan olib boriladi. Bir yengil tabiatli ayol unga tegajoqliq qiladi, qahramon undan nafratlanadi. Uyga kelgan qahramon ayolning qo‘li tekkan joylarini yuvib tashlaydi. U yer uchastkasini boshqaruvchining Imsil ismli qizi bilan tanishadi. Qiz unga oshiq bo‘lib qoladi. Ammo “ular orasidagi munosabat xo‘jayin va xizmatkor munosabati”dan boshqa narsa emas.

Ota-onal qizlarini bir dehqon cholga berishga qaror qiladi, ammo qiz buni rad etadi, natijada otasi tomonidan qattiq kaltaklanadi. Kaltak zarbidan qiz og‘ir xastalanadi va vafot etadi. O‘limidan so‘ng qiz qahramonning tushiga kiradi, uyqusida har doim qizning o‘zini chaqirayotgan ovozini eshitadi. Imsilning o‘limi feedal urflarning noinsoniy sarqitlari, ijtimoiy tengsizlik, ayollarning huquqsizligini ko‘rsatuvchi ramziy hodisadir.

Mazkur davr yozuvchisi Cho Myonxining “Naktongan” hikoyasi yangi koreys nasrining badiiy kashfiyoti bo‘lish bilan birga, inqilobchi ayol obrazini aks ettirgan asar hisoblanadi. Ijtimoiy hayot asarda shartli shaklda emas, hayotiy haqiqatlar – ona tuprog‘idan judo bo‘lib, qatag‘onga duchor qilingan, jafokash xalq turmushi, mustaqillik uchun harakatning faollashuvi, kurashga xotin-qizlarning ham jalb etilishi asosida berilgan. Jumladan, asar personaji Ro Ka ham kurashga bel bog‘ladi. U Roza Lyuksemburg bilan qiyoslandi.

Zamonaviy nasrda yaratilgan asarlarda ayollar obrazida ayollarning jamiyatdagi roli, o‘rni o‘sib, uning san‘at va adabiyotdagi vazifasi o‘zgarayotgani kuzatiladi. XX asrning birinchi yarmida yaratilgan asarlarda yaratilgan ayollar obrazini shartli ravishda quyidagicha 3 tipga ajratish mumkin: 1) muhit qurboniga aylangan ayollar; 2) axloqsizlik ko‘chasidagi ayollar; 3) inqilobchi ayollar.

XX asrning birinchi yarmida ijod qilgan Li San ijodida ham ayol obrazi transformasiyaga uchradi. Yozuvchining “Qanotlar” hikoyasida “yangi ayol” obrazi o‘zining ijtimoiy-ruhiy talqini bilan ajralib turadi. Li San ayol obrazining o‘ziga xosligini tasvirlar ekan, kitobxon e’tiborini yosh ayol va erkak yashaydigan manzilga qaratadi:

“Uyning o‘n sakkiz xonadoni yelkama-yelka turib saf tortgan, derazalari va eshiklari, hatto pechkalari ham bir xil. Bu kvartiralarda yashaydigan odamlarning hammasi gulg‘unchalar yanglig‘ yosh. Bu yerga quyosh ko‘z tashlamaydi. Chunki odamlar o‘zlarini xuddi quyosh haqida hech narsa bilmaydigandek qilib ko‘rsatadilar. Eshiklari qarshisiga dor tortadilar va o‘zlarini xuddi nam tortgan ko‘rpa-to‘shaklarini osib quritishlari kerakdek qilib ko‘rsatib, quyoshning yo‘lini to‘sadilar” [9].

Yozuvchi berayotgan mazkur davrda yangi uslubda qurilgan uylar tasviri, bu yerda istiqomat qiladigan yoshlar hayoti o‘quvchida makon va zamon haqida tasavvur uyg‘otadi, hikoyada bayon etilishi kutilayotgan taqdir va kutilayotgan voqealarga ekspozitsiya vazifasini o‘taydi. “Peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so‘z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga, inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini

ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda, biron-bir xiyobon yoki shahar kochasining tasviri ham peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir. Yozuvchi peyzajni voqelar rivojini to‘xtatib qo‘ygancha mufassal tasvirlashi (statik peyzaj) yoki unga taalluqli detallarni voqelar davomida berib borishi (dinamik peyzaj) mumkin. Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir” [8;220-b.].

Hikoya ekspozitsiyasidan so‘ng, muallif hikoya bosh qahramoni monologi orqali yosh ayol portretini chizadi: “...o‘ttiz uchinchi uyning o‘n sakkiz xonadonida yashaydigan ayollar ichida eng jajjis va chiroylisi. Bu yerda quyosh nurlarini o‘tkazmaydigan tunuka tom ostida mening ayolim yorug‘lik manbayi va o‘n sakkiz xonadonda ochilgan gullarning eng chiroylisi. Bu gulni parvarishlaydigan mendek jonzotning hayoti tuturiqsiz bo‘lib tuyuladi” [9].

Muallif erkak monologida ayolning statik portretini mohirona chizadi. Bir qator tadqiqotchilar hikoya da modernizm yo‘nalishi, erkak qahramon ruhiyati, “begonalashuv” masalasini tahlil doirasiga tortgan holda, ayol obraziga yetarlicha e’tibor qaratishmagan. Aslida, hikoya markazida ayol obrazi yetakchilik qiladi.

Keltirilgan parchada quyosh detaliga e’tibor qaratish joiz. “Bu yerga quyosh ko‘z tashlamaydi”, “...quyosh haqida hech narsa bilmaydigandek...”, “quyoshning yo‘lini to‘sadilar”. Yopiq xonadonlarning barchasi quyoshga qarama-qarshi qo‘yilgan soyani eslatadi. Yozuvchi mohirlik bilan ramziy obrazga falsafiy mushohadasini singdiradi. Xuddi bu xonadonlarda istiqomat qiladigan yoshlari o‘zlarining kirdikorlarini berkitish uchun “quyoshning yo‘lini to‘sadilar”.

Ammo hikoya qahramoni erkak quyosh nuridan zavq oladi: “Xonaning bir qismiga ba’zan quyosh nuri tushadi. Ertalab, u dastro‘moldek kattalikda paydo bo‘ladi, peshindan keyin yanada kichrayadi va g‘o-yib bo‘ladi. Tabiiyki, men quyosh tushmaydigan xonada yashayman. Biroq, shikoyat qilmayman. Ayolim ketishi bilan men darhol uning xonasiga kiraman, Sharq tomonga qaragan derazani ochaman. Derazani ochayotganimda, ayolim pardoz-andoz qiladigan stolchani quyoshning yorqin nurlari yoritadi, turli-tuman idishchalar yaltirab tovlana boshlaydi, bu manzara menga hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan lazat baxsh etadi” [9].

Bosh qahramonning quyosh nurlaridan lazzatlanishi tasviri juda ham yuksak badiiy bo‘yoqdorlikda berilgan. Quyosh nurlariga intilayotgan erkak qahramonning qalbi “quyoshning yo‘lini to‘sigan” kabi taas-surot uyg‘otadi. Chunki xonodon sohibalari kunduzi eshiklaridan ichkariga mo‘ralayotgan quyosh nurlari yo‘lini to‘sib qo‘yib, surunkasiga uxlaydilar, kun botganda uyg‘onib, xona chiroqlarini yoqib qo‘yishadi. Kichkina chiroq yorug‘ida xonadonlar sirli ko‘rinadi, ammo barcha kechasi jonlanadi. Ma’lumki, an’anaviy koreys jamiyatida ayollar oila boshliqlariga so‘zsiz itoat qilishgan, ular oilada o‘rnatgan tartib asosida hayot kechirishgan. Ammo, mazkur hikoya, aksincha, erkak ayolining ra‘yiga qarab kun kechiradi. O‘zgarayotgan jamiyatda oila tartiblarini ayol kishi o‘rnatadi. Uyat, or-nomusdan voz kechgan ayol oilani boqish uchun tunu-kun ishlaydi, ammo u qayerda ishlashi, nima ishlar bilan mashg‘ulligi erkakka noma’lum.

Hikoyada fojiani kuchaytirish uchun adib “darvoza” detalini kiritadi. Barcha o‘n sakkiz xonadonda yashaydigan uy sohibalarining nomlari zikr etilgan darvoza tabaqasi doimo lang ochiq. Darvoza nomigagina qo‘yilgan, hech qachon yopilmaydi. Shu sababli xonadonlarga kimlar tashrif buyurishi, va nega aynan kechki payt tashriflarning ko‘pligi bosh qahramon uchun jumboq. Ammo, o‘zining ayoli ham kechki payt uyida notanish erkaklarni qabul qiladi, ular bilan suhbatlashadi. Erkak esa o‘z xonasidan chiqishi va ayoliga xalaqit berishi taqiqlangan. Jajji, go‘zal sanam bunday “tartibsizlik”ni kechirmaydi: “Ayolim ishlaydimi? U ishlaydimi, yo‘qmi, men qaerdan bilaman. Agar u ishsiz bo‘lganida, menga o‘xshab uyda o‘tirgan bo‘lardi. U esa uyda o‘tirmaydi. U nainki o‘zi ko‘chaga chiqadi, balki uning oldiga odamlar kelishadi. Tashrif buyuruvchilar ko‘p bo‘lganda, men uzzukun o‘z xonamda to‘sakda yotishimga to‘g‘ri keladi” [9].

Bosh qahramon o‘zini halok qiladi, bunga uning ichki dunyosidagi ziddiyatli kechimlar sabab bo‘ldi. Birinchisi, quyidagi matnda anglashiladi: “Biroq, uy eshigini olib, men zinhor-bazinhor ko‘rishim kerak bo‘limgan narsani o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Esankirab eshikni yopdim va boshim aylanayotgani uchun ko‘zlarimni yumib, devorga suyandim. Ammo, oradan bir lahza o‘tmasdalan eshik yana ochildi va ayolim sochlari to‘zg‘igan bir ahvolda otolib chiqib, mening yoqamga yopishdi. Men sirpanib ketdim va polga yiqildim. Ayolim ustimga minib olib, meni savay boshladim. “Voy, jonim!” Unga qarshilik ko‘rsatishga holim ham, xohishim ham yo‘q edi. Men taqdirda tan berib, nima bo‘lishini kuta boshladim. Shu vaqt ichkaridan bir erkak chiqdi va ayolimni quchoqlab olib, ichkariga olib kirib ketdi. Ayolim begona erkakka o‘zini quchoqlashga izn bergenini ko‘rish jirkanch manzara edi” [9]. Ikkinchisi, “Bugun ertalab to‘rt dona aspirin ichganim va so‘ng uxbab qolganimni esladim. Kecha ham, o‘tgan kuni ham, undan oldingi kun ham tinimsiz uxlagim kelgan edi. Shamollahim allaqachon o‘tib ketgan bo‘lsa-da, ayolim menga baribir aspirin berardi.

Bir kuni uxbab yotganimda qo'shni uyga o't tushibdi. Biroq men uyg'onmadim. Dong qotib uxladim. Bir oy aspirin deb o'ylab uyqu dori ichibman. Bu hazil emas!" [9]. Uchinchisi, "Kishilik jamiyati jonimga tekkan. Hayotdan ham bezor bo'lganman. Hammasi menga begona bo'lib qolgan" [9.]. Ayol o'z xatti-harakatini eriga mudom pul berish bilan berkitishga harakat qiladi, ammo bu pullar uning hayotiga rang ber-madi. Iqtisodiy tanazzuldan og'irroq ma'naviy tanazzul og'ir asoratni – erkakning fojiali o'limini keltirib chiqardi. Erkakning ko'z o'ngida gunohga qo'l urchan ayol, ruhiy iztirobdan yiroq. Aksincha, erkak o'z jo-niga qasd qildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology).** Hikoyada obraz va detallar bilan birga raqamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "...o'ttiz uchinchi uy...", "...o'n sakkiz xonadonida..." keltirilgan raqamlarni qo'shib hisoblasak, quyidagi manzara hosil bo'ladi "3+3", "6" raqamiga, "1+8" esa "9" raqa-miga teng. Har ikki raqam o'z qiyofasini o'zgartirish xususiyatiga ega. Demak, yozuvchi o'zgaruvchan raqamlarda ayolning ikkiyuzlamachilik harakatlariga ishora qiladi. Bu faqat ayol va erkak oilasiga emas, balki davr fojiasiga aylangan muammodir. Li San yangi ayol obrazida mamlakatdagi tartibsiz ijtimoiy hayot bilan birga axloqsizlikning kuchayganligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, yozuvchi she'rlarida ham ra-qamlarga murojaat kuchli. Uning qalamiga mansub "13-raqamli she'r", "1933-yilning iyuni", "Qush par-vozi balandligida" she'rlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

13 bola yo'lda jon-jahdi bilan yugurib ketmoqda.

(Yo'l esa boshi berk ko'cha).

1-bola qo'rqinchli deb aytdi.

2-bola qo'rqinchli deb aytdi.

3-bola qo'rqinchli deb aytdi.

4-bola qo'rqinchli deb aytdi [10;133-p.]

Keltirilgan she'r shoир ijodidagi g'oyaviy murakkablikni, sonlar bilan ishslash esa dadaizm yo'nalishida ijod qilganini ko'rsatadi. She'rda qo'llanilgan o'n uch raqami an'ana va ramziylikni anglatadi. G'arb adabiyoti ta'siriga ko'ra, bu raqam baxtsizlik, falokat ma'nosini anglatsa, xitoy adabiyoti ta'siriga ko'ra, "1+3"dan hosil bo'lgan to'rt raqami o'lim ramzi sifatida talqin qilinadi. Shubhasiz, Li San xitoy adabiyotida mavjud an'anani koreys adabiy jarayonlariga kirib kelgan jahon adabiyoti andozalari bilan uyg'unlikda berishga muvaffaq bo'lgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** XX asrning birinchi yarmida koreys nasrida ayol siyomosi birinchi planga o'tdi, shaxs sifatida ijtimoiy maqomga ega bo'ldi. Dunyoni tebratuvchi hilqat egasi, xokisor, eriga itoatkor ayolning qiyofasi turfalandi. Mute, itoatkor, haq-huquqsiz ayol obrazi nasr taraqqiyoti bilan birga, o'zgacha talqinda ochila bordi. Koreys ayoli ruhiyatini yoritishda ijod ahli uning yangi qirralarini kashf etishdi. Li San ijodida ayol obrazining salbiy qirralari ochiladi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Касаткина Н. Поэтическое творчество женщин средневековой Кореи в жанре сичжо: Тез.докл. междунар. конф. "Россия и Корея: к новым горизонтам литературных взаимоотношений", М., СПб.,162–169 с.
- (2). Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени. Автореф. дисс...канд. искусствоведения, Краснодар, 2019, 42 с.
- (3). Ўзбек адабий танқиди [антология]. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов, З.Исомиддинов. Иккى аёл. Тошкент, "TURON-IQBOL", 2011, 544-бет.
- (4). Халаф А.А. Образ женщины в арабском искусстве. ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012, №1.
- (5). Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в). СПб., 2004, 320 с.
- (6). Saydazimova U.T. The issue of two women in the korean art world. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, №3, 2021. <https://cibg.org.au/>
- (7). Цой И.В. Корейская проза 1920–1930-х годов: новое и традиционное в рассказах Ким Тонина (1900–1951). Дисс...канд.филол. наук, Спб., 2003. 249 с.
- (8). Куронов Д., Мамажанов З., ва бошқ. Адабиётшунослик лугати. Тошкент," Akademnashr". 2010, 408-бет.
- (9). 이 상 "날개": 잡지 "조광" 11호. – 서울, 1936. – 265 쪽.
- (10). 박철희, 김시태. 현대시의 이해 "문학비평사" – 서울:1990. – 465 쪽.